

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

20. Буриева Умида Абдумуминовна НЕПОЛНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ИХ СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ДИСКУРСИВНОМ АНАЛИЗЕ.....	117
21. Хулкар Ҳамроева, Озода Мусаева БАДИИЙ МАТННИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ТАҲЛИЛИ (Эрназар Рўзиматов асарлари мисолида).....	126
22. Умида Хушвақтова ЛИНГВОПОЭТИКА – ЯХЛИТ ФИЛОЛОГИК ТАҲЛИЛ МАЙДОНИ (Зулфия Куролбой қизи асарлари мисолида).....	134
23. Hayitov Shavkat Ahmadovich, Nasriddinova Shaxruza Nuriddinovna SHAYXIMBEK SUHAYLIY ALISHER NAVOIY TALQINIDA.....	142
24. Nasimova Muattar Xasanovna O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA VAZIFAGA ASOSLANGAN TA’LIM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	152
25. Oripov Ne‘matilla Cho‘liyevich HAYKALTAROSHLIK SAN‘ATIDA QADRIYATLAR IFODASINI IDROK ETILISHI.....	158
26. Gulyamova Shahnoza Qahramonovna, Xudoyberdiyeva Filura Ziyadinovna NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING AHAMIYAT.....	162
27. Petrosyan Nelya Valerevna KOMMUNIKATIV USUL ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI O‘RGATISH.....	167
28. Muhiddinova Gulchiroy Sadulloevna YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	174
29. Abduraxmonova Nilufar, Latipova Gulasal KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASIDA KORPUS TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA.....	178
30. Меликова Мартаба Нумоновна ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ.....	185
31. Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi HUNARMANDLAR NUTQINING LINGVOMADANIY TAHLILI.....	193
32. Alimova Sevara Farkhadovna COLOR IDENTITY IN TRADITIONAL CHINESE CULTURE.....	200
33. Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA KONTSEPTUAL METAFORA TURLARINING TASNIFI.....	204




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,
Buxoro davlat universiteti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
u.s.ahmadova@buxdu.uz
<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>

HUNARMANDLAR NUTQINING LINGVOMADANIY TAHLILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada til serqirra hodisa bo‘lib, uning imkoniyatlari cheksiz ekanligi, milliy-madaniy xususiyatlari lingvokulturologiya sohasida tadqiq qilinishi, jamiyatning muhim bo‘g‘ini sanalgan, milliy qadriyat va an‘analarni o‘zida jamlagan hunarmandchilik sohasi bilan o‘zaro aloqador ekanligi faktik materiallar orqali tahlil qilingan. Hunarmandchilikning tikuvchilik, kashtado‘zlik, zardo‘zlik sohasiga oid perifrazalar keltirilib, sohaning ushbu turlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: til, tilshunoslik, lingvokulturologiya, hunarmandchilik, zardo‘zlik, kashtado‘zlik, tikuvchilik, perifraza, lison, nutq, muloqot, jamiyat, milliy-madaniy, hodisa, nutqiy muloqot, xalq, hunar, hunarmand.

Ахмадова Умидахон Шавкатовна,
Бухарский государственный университет,
Узбекское языкознание и журналистика
доцент кафедры, ф.ф.ф.д. (Кандидат наук)
u.s.ahmadova@buxdu.uz
<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧИ РЕМЕСЛЕННИКОВ

АННОТАЦИЯ

В статье с помощью фактического материала анализируется, что язык-явление многогранное, его возможности безграничны, национально-культурные особенности исследуются в области лингвокультурологии, взаимосвязаны с ремесленной сферой, считающейся важным звеном общества, вобравшей в себя национальные ценности и традиции. Приведены перифразы, относящиеся к области рукоделия, вышивки, золочения, даны сведения об этих видах ремесел.

Ключевые слова: язык, лингвистика, лингвокультурология, ремесла, ювелирное дело, вышивка, шитье, перифраз, язык, речь, общение, общество, национально-культурное, явление, речевое общение, народ, ремесло, ремесленник.

Ahmadova Umidakhan Shavkat qizi

Bukhara State University,
Uzbek linguistics and journalism
associate professor of the department, f.f.f.d. (PhD)
u.s.ahmadova@buxdu.uz
<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>

LINGUISTIC ANALYSIS OF CRAFTSMEN'S SPEECH

ABSTRACT

In the article, it is a fact that language is a diverse phenomenon, its possibilities are unlimited, its national-cultural features are studied in the field of linguistic-cultural studies, and it is interconnected with the field of handicrafts, which is considered an important link of society and contains national values and traditions, all these are analyzed through materials. Paraphrases related to sewing, embroidery, and goldsmithing are given, and information about these types of industries is provided.

Key words: language, linguistics, linguistic culture, crafts, goldsmithing, embroidery, needlework, periphrasis, language, speech, communication, society, national-cultural event, speech communication, people, craftsman.

Kirish. Til – kishilik jamiyatining aloqa, muomala, muloqot vositasi. Jamiyat a'zolari bir-birlari bilan muloqotda bo'lishni, suhbat qurishni istaydi. Mana shu istak orqali muloqot vujudga keladi. Muloqot natijasida bir vaqtning o'zida shaxsning juda ko'p sifatleri yuzaga chiqadi. U lisonidagi bor birliklardan foydalanib, nutqining ta'sirli bo'lishi orqali ko'zlagan maqsadiga erishish uchun kurashadi. Shu nutq, shu muloqot egalarining lisonida shu jamiyat a'zolari uchun xos bo'lgan til unsurlari yashaydi. Shunday ekan, har bir millatning o'ziga xos turmush tarzi, yashash muhiti, fikr va mulohazalarni qabul qilib idrok etishi uning tilida ham namoyon bo'ladi. "Tilni hosil qiluvchi belgilar mavhumotlar emas, balki real obyektlardir. Tilshunoslik ana shu real obyektlar va ularning munosabatlarini o'rganadi" [10, 118]. Muayyan xalq yashayotgan joyining tabiati, u xalqning iqtisodiy tuzumi, xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, avloddan avlodga etkazib berish tilning milliy-madaniy belgisi sanaladi. Tilning milliy-madaniy xususiyatari lingvokulturologiya bo'limida tadqiq qilinadi. Ma'lumki, "lingvokulturologiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari asosida shakllandi. U madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganadi" [5, 155]. Milliy-madaniy xususiyatlar tilning barcha qatlamlari leksikasida ham, grammatikasida ham, hattoki fonetikasida ham mavjuddir. Milliy-madaniy belgi va xususiyatlar tilda yashaydi, rivojlanadi. Tilshunoslikda shunday soha borki, til va madaniyatshunoslik birlashgan nuqtada vujudga kelgan. Hunarmandlar leksikasini boyitishda ham perifrastik birliklarning o'rni beqiyosdir. Lingvokulturologiya sohasi bevosita jamiyatning, mamlakatimizning milliylikini ifodalovchi, o'zida mujassamlashtiruvchi hunarmandchilik yo'nalishi bilan bog'lanadi.

Asosiy qism. Hunarmandchilikning turlari juda xima-xil. Vaholanki, inson hunari, mehnati bilan jamiyatda e'zozlanadi hamda qadr topadi. Qaysi kasb bo'lmasin barchasining o'z siri, mushkuloti bo'ladi. "Hunarmand leksemasining asosi arabcha hunar so'zidan olingan bo'lib, «O'zbek tilining izohli lug'ati» [6] da tilimizda to'rt xil ma'noda ishlatiluvchi polisemantik so'z sifatida tavsiflangan va uning, asosan, san'at; bilim, ko'nikma, mahorat, ustalik; kasb leksemalari bilan variantdosh ekanligi ko'rsatilgan.

Hunarmandchilikning muhim turidan biri bo'lgan tikuvchilik sohasi shunday sohalardan sanaladi. O'zbek milliy mentalitetini aks ettirgan, o'zbek modelini o'zida mujassamlantirgan, milliylikni ifoda ettirgan liboslarni tikish, uni naqshiga tushirish, mos ranglarni tanlay olish, bezak berish tikuvchidan kattagina mahorat va sabr talab etadi. Ana shunday mohir hunarmand kasb egalari bor ekanki, bugun jamiyatimizning har bir a'zosi ularning mehnatidan foydalanadi. Mana shu soha vakillarining nutqida yoki shu sohaga oid bo'lgan predmet va vositalariga nisbatan qo'llangan perifrastik ham anchagina bo'lib, tilni boyitish va jamiyatni taraqqiy toptirish uchun xizmat etadi.

Perifrazani o‘zbek tilshunoslari quyidagicha izohlashadi. Jumladan: A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati»da perifrazaga «Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma‘lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom» [11, 67] sifatida ta‘rif beriladi. Yoki H.Shamsiddinov “perifraza predmet-hodisani qayta nomlaydi”, M.Mirtojiev “Perifrazalar ma‘lum bo‘lagi yoki bo‘laklari ko‘chma ma‘noda bo‘lib, ular ma‘nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birlikdir” [7, 28], U.Ahmadova “perifraza nutqning rang-barangligini, badiiyligini ta‘minlovchi uslubiy vosita bo‘lib, u tilning nomlash ehtiyoji mahsuli emas, balki ifoda ehtiyoji mahsuli” [1,15] sifatidagi qarashlari mavjud. Ma‘lumki, hunarmandlar leksikonidagi birliklar o‘zbek tili leksikografiyasini to‘ldirish va boyitishda hissa qo‘sha oladi. Masalan:

Ikki podsho – qaychi

Ikki podsho qon chiqarmay urishadi [9, 175].

Ikki botir – qaychi

Ikki botir qilichlashar [9, 176].

Ikki bo‘ri – qaychi

Ikki bo‘ri tog‘da o‘ynar, chang chiqarmay,
Ikkisi ham bir bosh eydi, qon chiqarmay [9, 176].

Bozordagi mo‘ndi – angishvona

Bozordagi mo‘ndi,
Kelib qo‘limga qo‘ndi [9, 177].

Bir ko‘zli kampir – igna

Bir ko‘zli kampir,
Ko‘ylakka gul tikar [9, 177].

Tilla to‘qim – tikish mashinasi

O‘t emaydi bedanam,
Suv ichmaydi bedanam.

Tilla to‘qim ustida,
Yo‘rg‘alaydi bedanam [9,180].

Ko‘rinadiki, tikuvchilik kasbiga oid perifrazalarni uzoq davom ettirish mumkin. Jamiyatimizda tikuvchilik sohasi vakillariga tez-tez ishimiz tushib turadi. Bu soha kishilarisiz jamiyatimizni tasavvur qilish juda mushkul. Aynan shu soha a‘zolari kasbiy faoliyati bilan bog‘liq perifrazalarning uchrashi tilimiz uchun amaliy va nazariy jihatdan kattagina ahamiyatga ega. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunasi sanalgan birliklarda perifrazalarning qo‘llanishi o‘zbek tilining boy imkoniyatini ko‘rsatadi. Chunki, perifrastik birliklarning o‘zi bir madaniy birlik sanalsa, hunarmandchilik kasbi esa madaniyatlarni, xalqlarni birlashtiradigan soha sirasiga kiradi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan topishmoqlar tarkibida ham perifrazalarni kuzatish, uchratish ushbu vositaning muhim ahamiyatga ega ekanligini dalillaydi. Bu orqali perifrazaning nutqiy birlikdan lisoniy birlikka o‘tganini kuzatish mumkin. Shunday perifrazalar mavjudki, nutqda tug‘iladi va nutqiy birlik bo‘lib qoladi. Ammo yana shunday perifrastik birliklar borki, nutqiy birlikdan lisoniy birlikka o‘tadi. Masalan: oq oltin – paxta, qimmatbaho tola – ipak, zangori ekran – televizor, yaylov bahodirlari – cho‘ponlar, sarhadsiz chegaralarimiz burgutlari – harbiylar, osoyishtalik posbonlari – ichki ishlar xodimlari, salomatlik posbonlari – shifokorlar, ta‘lim fidoyilari – o‘qituvchilar, jasorat malikasi – To‘maris, vafo va sadoqat timsoli – Zulfiya kabilar. Bular avval nutqiy bosqichda turgan bo‘lsa, endilikda lisoniy birlikka aylanib, jamiyat a‘zolari uchun umumiy, majburiy, imkoniyat va sababiyat bo‘lib turadi. Har bir nutq egasi lisonida bugun perifrazalar yashaydi va voqelanadi.

Tikuvchi har bir bergan bezagiga, naqshiga, har bir toshiga, rangiga qarab o‘z san‘at asarini yaratadi va unga mehr qo‘yadi. Istalgan turdagi matodan yangi bir asar yaratadi. Qadimdan ma‘lumki, gazlamalar turlicha bo‘lib, turfa maqsadlarda liboslar joyiga qarab kiyilgan. XVI – XVII asrlar davomida Movorounnahrda to‘qilgan ip-gazlama hamda ipak matolar chegaradosh mamlakatlarda katta qiziqish bilan xarid qilingan. Matolarning eng qadimiylari XIX asrning 60-yillariga mansub, ammo o‘zining an‘anaviy qiyofasini saqlab qolgan hunarmandchilik matolarining aksariyat qismi 1880-1890-yillarga tegishlidir. Ular ip-gazlama, yarim ipak, ipak matolarni o‘z ichiga

oladi. Namoyish etiladigan matolar orasida bo‘yalmagan kalavadan to‘qilgan mato – karbos, yo‘l-yo‘l naqshli mato – kalami, yanada sifatli va rang-barang bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan olacha kabi matolar kundalik turmush tarzda, ro‘zg‘orda keng foydalaniladi.

XX asrda chitgarlik san‘atiga mansub donali bosma mahsulotlar – yopinchiq, kashtalar, dasturxonlarda yaqqol aks etgan. Ularning qadimiy nusxalari o‘zbek matoga gul bosish san‘atining 150 yillik tarixidan darak beradi. Yarim ipak va ipak matolar kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa mahsulotlarda o‘z aksini topgan. Hunarmandchilikning ushbu turi juda qadimiy. Chitgarlik O‘rta Osiyoga ham Buyuk Ipak yo‘li orqali kirib kelgan. Qadimdan mintaqa xalqlari gul bosilgan chitdan dasturxon, joynamoz, parda, palak, ko‘rpacha, belbog‘, chopon astari, shuningdek, choyshab tikishda foydalangan. O‘zining bejirimligi, qo‘llanishda qulayligi va arzonligi tufayli bunday matolar xalq orasida keng tarqalgan. Chitgar hunarmandlar matoni yaratish jarayoni murakkab bo‘lishiga qaramay, ushbu san‘atda yuqori natijalarga erishganlar. Shuning natijasida, an‘anaviy o‘zbek chitgarlik san‘ati ravnaq topgan. Bosma matolarning ajoyib go‘zal naqshlari, ularning atrof-muhitga uyg‘unligi va bu matolarga aholining talabi kuchli ekanligi xalq orasida ushbu hunarmandchilikni eng mashhur amaliy san‘at turlaridan biriga aylantirgan.

Beqasam har xil markazlarda ishlab chiqarilishi va ishlatilishiga qarab, yo‘l-yo‘l naqshlarining rang-barangligi, bilan ajralib turgan. Har xil keng va tor yo‘llar Buxoro matolari uchun xos bo‘lsa, Farg‘ona va Toshkentda to‘q rangli tor yo‘lli, Xorazmda qizil-alvon tusli, Qarshida bosli va turfa rangli matolarda namoyon bo‘lgan. Abr naqshli matolar o‘zining badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Uni asos iplarini to‘qish oldidan qayta bog‘lash va bo‘yash orqali hosil qilinganligini ko‘rish mumkin. Naqshlarda turli buyumlar, o‘simliklar, geometrik va zoometrik shakllar tayyor mato ustida xuddi bulut (abr – bulut) singari suzib yurganday ko‘rinadi. Shuning uchun ham bu mato turiga tikuvchilar, aholi orasida “**samoviy bulutlar**”, “**moviy gumbazi**” nomlari berilgan. Bu esa tilshunoslikda perifraza sanaladi. Abr matolari butun mintaqada ommalashgan. Abrli yarim ipak, ya‘ni adras o‘zining bezaklari va rasmlar xilma-xilligi bois “**podshohi**” (poshshoyi) nomini ham olgan.

O‘tmishda Buxoro, Samarqand, Marg‘ilon va Qo‘qonda ishlab chiqarilgan ipak matolar, shoyilardan ayollar liboslarida ko‘proq foydalanilgan. Shuningdek, kolleksiyalardagi ipak va zardo‘zi matolaridan tikilgan choponlarida, hashamatli ot yopqichlarida, chiroyli bezakli kashtalarda ishlatilgan shoyilar hozirgacha kishilar diqqatini tortib kelayotganligi, hattoki, mato va gazlama nomlari ham perifractalab qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Masalan:

Noyob ipak mato – Zandaniychi

VI — VIII asrlarda ishlab chiqarilgan Zandaniychi matolari parchalari G‘arbiy Yevropaning bir nechta muzeylarida bugungi kunda saqlanib qolgan. Belgiyadagi Yun shahri soborida saqlanayotgan ushbu **noyob ipak mato** parchasini o‘rganayotgan san‘atshunos olim, fransuz tadqiqotchisi D.Shepard unda siyohda bitilgan bo‘jxona yozuvi va muhrini topdi va uni o‘qishga muvaffaq bo‘ldi [3]. Yoki,

Atlas va adras matosiga nisbatan **milliy qadriyatlarimiz jilosi** [4] perifrasi ishlatilgan.

Milliy va qadimiy hunar turlaridan yana biri bu kashtachilik san‘ati hisoblanadi. Kashtachilik san‘ati va u bilan bog‘liq perifrastlar ham xalqimiz ko‘nglidan joy olgan va ommalashgan. Masalan:

Sehrlangan mato – kashta

San‘atning ommaviy turi hisoblangan kashta “sehrlangan mato” har bir ayolning ijodiy qobilyatidir (So‘zlashuvdan).

Qadimdan buvilarimiz, onalarimiz, opa va singillarimiz kashta tikish bilan shug‘ullanganliklaridan xabardormiz. Kashta urilgan matolardan foydalanish farzandning dunyoga kelishi, sunnat va nikoh to‘ylari kabi muhim oilaviy voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan. Kashtalar oilada saqalangan, avloddan avlodga o‘tib boravergan.

Kelin himoyachisi – palak

Kuyovning uyiga kelinni boshiga palak “kelin himoyachisi”ni bog‘lab kiritishgan. Shunda palak go‘yoki, kelinni ins-jinslar va ko‘zlardan himoya qilgan (So‘zlashuvdan).

Ma‘lumki, kashta urilgan palakni kelin himoyachisi sifatida talqin qilishgan. U yangi kelinchakni begona ko‘zlardan asrovchi mato sanalgan. “O‘zbekiston an‘anaviy san‘ati atamalari badiiy ensiklopediya”sida palak so‘zining quyidagicha izohi keltirilgan. “Palak” (arabcha, aynan: “falak”)

samoviy homiylik ramzi bo'lgan. Astar naqshli, xona devoriga ilinadigan, kashta tikib tayyorlangan, katta o'lchamdagi badiiy buyum [2, 145].

Ezgu tilak elchilari – so'zana

Ko'p hollarda juda erta turmush qurgan qizlar o'z oilasidan turmush o'rtog'ining uyiga yo'l olar ekan, o'zi bilan har bir bahiyasida mehr-muhabbat va ezgu tilaklar aks etgan so'zanalarni ya'ni **ezgu tilak elchilarini** olib borgan (So'zlashuvdan).

Bunda ham so'zanalarga kashta urilgan bo'lib, xalq orasida mehr-muhabbat ramzi, ezgu tilak elchilari sifatida qaralgan.

Ezgulik elchisi – qush

Kashta uruvchi tikuvchilar faoliyati davomida ishlatiladigan bezaklardan biri qush **“ezgulik elchisi”** timsolidir (So'zlashuvdan).

Ko'rinadiki, kashta san'atidan foydalanish jarayonida matolarga har xil tasvirlar tushirilgan. Shulardan qush tasviri kashta iplari yordamida tikilar ekan, unga ezgulik elchisi sifatida qaralgan.

O'zbekistonda kashtachilik san'ati ancha taraqqiy topgan. XIX asr o'rtalariga oid O'zbekiston xalqining an'anaviy maishiy madaniyatida muhim o'rin tutuvchi kashtachilik buyumlarining ko'plab namunalari Buxoro, G'ijduvon, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Nurota, Jizzax, Toshkent, Farg'ona vodiysi shaharlari va qishloqlarida yashaydigan kashtachilarning turli texnologik usullari, naqsh uslublari bir-biridan farq qiladi. Hunarmandchilikning bu turi ham milliylikni o'zida aks ettirishi bilan ajralib turadi. Badiiy kashtachilikning yorqin naqshinkor san'ati asosan, bezakli kashtalar so'zanalarda o'z aksini topgan. Ular asosan to'y marosimlarida katta amaliy ahamiyat kasb etgan va sepning zaruriy qismi hisoblangan. Sep uchun ma'lum o'lcham va ko'rinishdagi kashtalar to'plami tikilgan va bu ishda bo'lajak kelinning yaqin qarindoshlari ham ishtirok etishgan. Kashta urilgan so'zana kelin-kuyovlarning ko'rpa-to'shaklari uchun yopqich sanalgan. Shuningdek, kashta urilgan bu to'plamlardan to'y va boshqa marosimlar uchun tikilgan buyumlar oynaxalta, dastorpech (kuyovning salasiga o'raladigan tugun), zardevor (xonaning tepasi, shiftga yaqin qismiga qoqiladigan uzun kashta), gavorrapo'sh (beshik yopqichi), tanpokkun (kelin-kuyov uchun sochiq), sandalipo'sh (tanchaning ustiga to'shaladigan guldor mato) singari uy-ro'zg'or buyumlari ham o'rin olgan. Shuningdek, erkaklar belbog'i, hamyon, pardoz xaltasi, pichoq qinlari ham o'rin olganki, ular bir paytlar uyga kelgan mehmonlar, tanish-bilishlar uchun hadya sifatida ham berilgan. Kashtalarni tikishda hunarmandchilik usulida asosan yigirilgan ipak kalavalar ishlatilgan. Ular yordamida tikilgan naqshlar gilamlar sathidagi to'qima naqshlarni yodga solgan. Samarqand, Jizzax, Qarshi va Shahrisabzda 1880-yillarda kashta naqshlari Hindistondan keltirilgan ipak iplar yordamida tushirilganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Samarqand va Shahrisabz kashtalari, asosan, so'zanalarda bargli naqshlar yoki **“abri bahor”** (bahor bulutlari) quyosh chiqishi yoki kamalak jilolarini aks ettiruvchi rang-barang ilonizi tasviri uchraydi. Tasvirlar bilan bog'liq ma'lumotlar berilar ekan, mana shu nomlanishda bevosita abri bahor – bahor bulutlari perifrazasi yuzaga kelgan. Quyosh chiqishi yoki kamalak jilolarini aks ettiruvchi rang-barang ilonizi tasvirlari qo'llangan. Nurota, Buxoro va Shahrisabzning eski kashtalarida o'simliksimon naqshlar bilan birga qushlarning ham tasvirlarini uchratish mumkin. Kashta mahsulotlarining turiga qarab har xil perifrazalar qo'llangan. Kashta urilgan ro'molcha, so'zanalarga nisbatan **baxt timsoli, ko'ngil ramzi, ishq ramzi** perifrazalari qo'llangan. Bu orqali oilaviy baxt timsoli izohlangan. Qadimda insonlar kashtalardagi yozuvli naqshlar insonlarni turli yovuz kuchlar taqibidan himoya qilishiga ishonishgan.

O'rta Osiyo zardo'zlik san'ati ham uzoq asrlik tarixga ega. XIX asrda Buxoroda zardo'zlik eng obro'li kasblardan sanalgan va usta zardo'zlarning aksariyati amir saroyining buyurtmasi bo'yicha ishlangan. Ularning mahsulotlari xilma-xil bo'lgan. Yostiq jildi, pardlar va tantanvor ot anjomlari buyumlar, erkak va ayollar kiyimlari – choponlar, ko'ylaklar, bosh kiyimlari, ro'mollar, shuningdek, har turli mayda-chuydalargacha zardo'zlar qo'lidan chiqqan. Ayollarning zardo'zi usulda tikilgan ust kiyimlari, uy-ro'zg'or buyumlari, hamyonlarni qurbi etgan har qanday kishi sotib olishi mumkin bo'lgan bo'lsa, erkaklarning zardo'zi choponlarini faqat amir va unga yaqin mansabdorlargina kiyishi mumkin bo'lgan. Chunki bunday liboslar mansabga tayinlanish chog'ida maxsus yorliqlar bilan

tegishli amaldorlarga marhamat qilingan. Zardo'zlik mahsulotlari bilan bog'liq perifrastik birliklar ham xalq orasida, hunarmandlar nutqida keng qo'llaniladi. Masalan:

Kallayi tillodo'zi – bosh kiyim (sallalar)

Abdurazzoq Samarqandiy Shohruh tomonidan 1442-yilda Kalkutta hukmdori huzuriga yuborilgan sovg'alarni tavsiflar ekan, zardo'zlik mahsuloti bo'lmish "kallayi tillodo'zi" bosh kiyimlarini tilga oladi (Hunarmand Nafisa Qurbonova nutqidan).

Zar ip – patilla

Kashta tikish jarayonida zar ip patilla deb nomlangan, uzunligi yigirma santimetrdan iborat bo'lgan to'rt qirrali yog'och tayoqchalarga o'ralgan. Mahalliy aholi "zar ip" deb nomlashgan (Hunarmandlar ko'rsatuvidan).

Yoki: oltin ip – zar urish uchun mo'ljallangan ip, libosi oltin – zardo'zi kiyimlar, kiyimi shohona – zardo'zi choponlar, baxt elchisi – zardo'zi so'zana kabi perifrastiklar qo'llangan.

Keyingi yillarda tilshunoslik, madaniyatshunoslik, turizm, hunarmandchilik, lingvokulturologiyada inson va uni bir-biriga bog'lab turuvchi ommillarni birgalikda o'rganish, ya'ni tili, mentaliteti, tashqi ko'rinishi, ichki dunyosi, qadriyat va urf-odatlarini o'rganish, tadqiq qilish an'anaga aylanib bormoqda. Shu jumladan, zardo'zlik hunari bor ekanki, shu hunar bilan shug'ullanadigan kasb egasi ham, shu mahsulotdan foydalanadigan iste'molchi ham nutqida tilning turli ifodaviy vositalaridan foydalanadi. Tilning bunyodkori shaxs, inson. Nutq adresat uchun aniq, tushunarli, jozibador, emotsional-ekspressiv kuchga ega bo'lishida tasviriy ifodalar qo'llanganligi kuzatiladi.

Xulosa. Til insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro muomala vositasi sanaladi. Til muomala vositasiga aylanishi bilan imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi. Bu orqali tilning ijtimoiylik imkoniyati ham kengayib boradi. Nutqiy faoliyat davomida til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham etkaziladi. Ana shu suhbatning eshitimli va yoqimli bo'lishini ta'minlovchi unsurlardan biri perifrastiklardir. Maqolada hunarmandlar nutqiga oid perifrastiklar til va nutq bosqichida tahlilga tortilishi ham til va jamiyat munosabatlarining yana bir karra aloqadorligini ko'rsatadi. Chevarlik, kashtado'zlik va zardo'zlik perifrastiklariga oid misollar saralanib, tahlili keltirilgan ekan, bunda shu hunar turining o'ziga xos xususiyatlari, predmetlari, vositalari haqida kishida yanada yaxshiroq taassurot uyg'otish imkonini beradi. Ushbu birliklar orqali tahlilni amalga oshirish til va nutqning kommunikatsiya jarayonida ijtimoiy vazifalarini to'raligicha ko'rsatishga yodam beradi.

Umuman aytganda, barcha tasviriy vositalar singari perifrastiklarning ham lingvokulturologiyada o'ziga xos o'rni mavjud. Perifrastik birliklar tilning estetik funksiyasini oshirishda muhim omillardan sanaladi. Til va jamiyat taraqqiyotida perifrastiklar asosan, odob-axloq o'zaro hurmat, xushxulqlik, ya'ni milliylik tamoyili asosida paydo bo'ladi. Perifrastiklar serqirra va keng qamrovli hodisa bo'lib, u nafaqat metafora so'zlar o'rnida, qolaversa, ko'plab tasviriy vositalar o'rnida badiiylashtirib, birliklar ma'nosini ta'sirchan qilish uchun ham qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadova U. Publitsistik uslub perifrastiklarining lingvomadaniy xususiyatlari (monografiya). – Buxoro: Durdon, 2024. – B. 127.
2. Gyul E. O'zbekiston an'anaviy san'ati atamaları badiiy ensiklopediya. – Toshkent. 2023. – 268.
3. <https://handicraftman.uz/o-rta-osiyoning-boy-bezakli-ipak-matosi-zandaneychi/>
4. https://uza.uz/oz/posts/atlas-va-adras-milliy-qadriyatlarimiz-jilosi_500982
5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2017. – B. 310.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi O'zbek tilining izohli lug'ati «H» harfi.
7. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 42.
8. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.185.
9. Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 252.

10. Фердинанд дў Соссюр. Умумий тилшунослик курси. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 307.
11. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 67-б.
12. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, № 4. – Б. 29-35.